



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2023-yil 7-mart

“NKMK” AJning Kanadaning Toronto shahridagi PDAC konchilik sanoati xalqaro anjumandagi ishtiroki to‘g‘risida

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati 5-8-mart kunlari PDAC (Kanada konchilar va oltin izlovchilar assotsiatsiyasi)ning Toronto shahrida o‘tkazilayotgan konchilik sanoatidagi yetakchi xalqaro anjuman va ko‘rgazmalarida ishtirok etmoqda. Mazkur anjuman har yili konchilik sanoatidagi xalqaro investorlar va ekspertlarni birlashtiradi va konchilik kompaniyalari va loyihalari taqdimoti uchun eng muhim global platforma hisoblanadi.

Jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to‘rttaligiga kiradigan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq keng ko‘lamli transformatsiya dasturini amalga oshirayotgan “NKMK” AJ joriy yilda anjuman doirasida ko‘rgazma stendi bilan qatnashmoqda. Shuningdek, dunyodagi eng yirik birjalardan biri bo‘lgan va konchilik sanoati ko‘plab korxonalarining aksiyalari sotiladigan Toronto fond birjasi prezidenti taklifiga binoan kombinat investitsiya banklari, fondlari va potensial hamkorlar uchun davra suhbatini o‘tkazdi.

Davra suhbatida “NKMK” AJ bosh direktorining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Antonov kompaniya taqdimotini o‘tkazdi va uchrashuv ishtirokchilarining savollariga javob berdi. NKMK jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyasi sifatida ishtirokchilarning e‘tiborini jalb qildi. Investorlar kompaniyaning ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlari, uning barqaror rivojlanish siyosati, transformatsiya dasturining amalga oshirilishi va strategik rejalariga qiziqish bildirdilar. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonning ochiqdanayotgan iqtisodiyoti, respublikamizga xorijiy investorlarni jalb etish va ularning ishlashi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar jahon banklari va fondlarining vakillarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Davra suhbatlari yakunlari bo'yicha Yevgeniy Antonov quyidagilarni bildirdi:

- Biz xalqaro investitsion hamjamiyatning nafaqat kompaniyamizga, balki O'zbekistonga, mamlakatimiz rahbariyatining xorijiy investorlarni jalb etishga qaratilgan siyosatiga katta qiziqish bildirayotganini ko'rdik. Davra suhbatlari ishtirokchilarida kompaniyamiz ko'lamlari katta taassurot qoldirdi va biz "NKMK" AJda amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlariga ijobiy munosabatning guvohi bo'ldik. Ishonchimiz komilki, bu muloqot davom etadi va davra suhbatlari ishtirokchilari kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritadilar.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

"NKMK" AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc

Ma'lumot uchun:

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati ("NKMK" AJ) jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligiga kiradi va O'zbekistonning yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq kombinat aksiyadorlik mulkchilik shakliga o'tdi. Korxonada korporativ boshqaruvning zamonaviy tizimini joriy etish, xalqaro standartlar talablari asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, kombinatni ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha yetakchi jahon kompaniyasiga, shuningdek, xalqaro moliya bozori ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.